

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН ЖУРНАЛИСТИКА ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР
УНИВЕРСИТЕТИ

“КИРИТИЛДИ”
Ўзбекистон журналистика ва
оммавий коммуникациялар
университети ректори

Нуродин Кудратхузаев

2021 йил “07.10.”

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Олий ва ўрта махсус
таълим вазири
А.Х.Тошқулов

2021 йил “10.10.”

5152000 – МЕДИАДИЗАЙН БАКАЛАВРИАТ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ
БЎЙИЧА ИЖОДИЙ (КАСБИЙ) ИМТИХОНЛАР ДАСТУРИ ВА
БАХОЛАШ МЕЗОНИ

Ижодий бакалавриат – йўнайтилган

Ижодий циклдаги юниситада оидий тарбияни амалга оshибди

Бакалавриат магистратурасида оидий тарбияни амалга оshибди
бўйича ижодий (касбий) имтиҳонлар дастури ва бахолаш мезонини
тозоқлашадиган тарбияни амалга оshибди яхши таддимида оидий тарбияни
дебоблашадиган тарбияни амалга оshибди яхши таддимида оидий тарбияни

Тошкент – 2021

Tuzuvchilar:

R.A.Nigmatov – O‘zJOKU o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektori.

N.F.Muratova – O‘zJOKU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

G.V.Zokirova – O‘zJOKU Internet jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar fakulteti dekani

Taqrizchilar:

A.A.Karimov – O‘zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dosent

Olimjon O‘sarov – Jurnalistlar ijodiy Uyushmasi raisi

Kirish

5152000 – Myediadizayn ta’lim yo‘nalishida amaliy ish va ijodiy imtihon o‘tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur sohada talab etadigan ijodiy qobiliyat, kreativlik, zaruriy axborot texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasining mavjudligi, axborot mahsulotining tarkibiy elementlarini mantiqan mos va uyg‘un holda joylashtira olishi kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyat;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV va mediadizayn sohasini qay darajada bilishi;
- Mediadizayn kasbiga moyilligi;
- OAV faoliyatida dizaynning ahamiyatini chuqr tushunishi;
- Nashrlarni dizayn qilish amaliyoti bilan tanish ekanligi;
- Nashrlarni dizayn qilishning texnik va dasturiy ta’midotidan xabardorlik darajasi;
- Fikrlash va ijodda kreativ yondashuvning mavjudligi;
- Yozma savodxonlik darajasi;
- O‘z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;

Amaliy ish va ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda: amaliy va ijodiy ish shaklida amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – abituriyentlar CorelDraw, Adobe Photoshop dasturlaridan foydalanib, muayyan gazeta, jurnal yoki veb-saytning bosh sahifasi maketini, o‘z ismi-sharifi logotipidan foydalanib yaratilgan vizitkani yaratadi.

Dizayn loyiha (amaliy) ishi quyidagi tartibda o‘tkaziladi.

CorelDraw, Photoshop dasturlaridan foydalanib, muayyan gazeta, jurnal yoki veb-saytning bosh sahifasi maketini yaratishi uchun abituriyentga **1,30 astronomik soat** vaqt ajratiladi.

Amaliy ish maxsus kompyuterlar bilan jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi.

Dizayn loyihalash ishini baholashda kompozisiyaning mavzu jihatdan originalligi, sahifaning mavzusiga mos dizayn tanlanganligi, badiiy va g‘oyaviy ifodada ranglardan to‘g‘ri foydalanilganligi, tasvirlar va dizayn elementlarining jurnalistik mahsulot mazmuniga va nomiga mosligi, sahifa yoki nashr nomiga mos logotip ishlab chiqilganligi va unga mos shakl topa olinganligi, ishlanish mahorati va uning tugallanganlik darajasi kabi masalalarga e’tibor qaratiladi.

Ikkinci bosqich – Esse yoziladi.

Ijodiy imtihon esse shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- esse mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma’naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag‘ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo‘naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lishi nazarda tutiladi va fan bo‘yicha imtihon komissiyasi a’zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertda qat’iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

- qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig‘i bilan rais o‘ribbosari ijodiy imtihon boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo‘yicha imtihon komissiyasining raisiga esse mavzulari

solingen konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;

- ijodiy imtihoni o'tkazilishi uchun 1.30 astronomik soat vaqt belgilanadi;
- ijodiy ish sahifalari muhrlangan 12 varaqli daftarga yoziladi, qoralama uchun ham sahifalari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Esse yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- Essening hajmi 5 betdan kam bo'lmasligi kerak;
- ijodiy imtihon uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoramalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;
- yozma ishlar faqat oliv ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;
- tekshirilgan esselarga qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini esselarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;
- essegaga quyidagi yo'naliishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

Amaliy ish va ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

Amaliy ish va ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Amaliy ish va ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Amaliy ish va ijodiy imtihonda toplash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – 126 ball.

Amaliy ish va ijodiy imtihonning har bir bosqichini baholash uchun ajratilgan maksimal ball:

birinchi bosqich - (amaliy ish) 63 ball

ikkinci bosqich - (esse) 63 ball.

1. Amaliy ishni baholash mezonlari

1. CorelDraw, Adobe Photoshop dasturlaridan foydalanib, yaratilgan nashr sahifasi maketi, o'z ismi-sharifi logotipidan foydalanib yaratilgan vizitkani baholash mezonlari:

Ajratilgan ball miqdori – 0 - 63 ball

Nº	Mezonlar	Ajratilgan ball
1.	Kompozisiya mavzu jihatdan original topilganligi, kreativlik	9 ball
2.	Grafik dasturda qatlam, ranglar palitrasи va matn stillaridan to'g'ri foydalanganligi	7 ball
3.	Sahifada sarlavha, rukn, hoshiya va chegara chiziqlarining mavjudligi va to'g'ri joylashtirilganligi	7 ball
4.	Grafik dastur interfeysi bilan ishlash uchun yetarli tajriba va	7 ball

	ko'nikmaga ega ekanligi	
5.	Sarlavxada mavjud ma'lumotlarning bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtirilganligi va masshtablligi	6 ball
6.	Tanlangan tasvir va suratlarning tanlangan mavzu va mutaxassislikka mosligi	9 ball
7.	Matn va shriftlarning to'g'ri tanlanganligi va o'qishga qulaylik darajasi	9 ball
8.	Ishlanish mahorati va ishning tugallanganlik darajasi	9 ball
JAMI:		63 ball

2. Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy essenii baholash ikki tizimli: mazmuni va matn xatolariga qarab baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan umumiylar maksimal ball miqdori – 63 ball.

Esseni baholash mezonlari

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari: (mazmuni – maksimal 30 ball; imloviy va uslubiy xatolar – maksimal 33 ball)

Nº	Ballar qo'yish mezonlari:	Maksimal ballar
1.	A) Mavzu sayoz ochilgan, raqam va dalillar yetarlicha keltirilmagan bo'lsa bo'lsa – 3 - 5 ballgacha, abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki, fikrlash doirasi tor bo'lsa, ishda erkin ta'sirli bayon bo'lmasa – 0 – 2 ballgacha; B) 12 tadan ortiq uslubiy va imloviy xatolar mavjud bo'lsa - 0 - 7 ballgacha, ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa 7 – 9 ballgacha	0 - 5 0-9
		Jami: 14 ball
2.	A) Mavzu muayyan darajada ochilgan, raqam va dalillardan biroz foydalanilgan bo'lsa-da, abituriyentning ifodada badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga intilganligi ko'rinish tursa – 6-8 ballgacha, tahlil qilishga harakat qilganligi sezilib tursa-yu, ammo tahlilda mantiqiy xulosalar chiqarishda ojizligi sezilsa – 4 - 6 ballgacha; B) orfografik, punktuasion va uslubiy xatolarning umumiylari soni 10 tagacha bo'lganda - 12 – 16 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi; ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 14 – 18 ballgacha;	6-8 13-18
		Jami: 26 ball
3.	A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o'rinli foydalanilgan hamda tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarishda iqtidor namoyon etilgan bo'lsa, til va uslubda raxonlik va obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash sezilsa - 8-10 ballgacha; mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmagani sezilsa - 6-8 ballgacha; B) Orfografik, punktuasion va uslubiy xatolarning umumiylari soni 6-9	8-10 22-28
		Jami: 38 ball

	ta bo‘lganda - 20 – 24 ballgacha, ishda qo‘pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 22 – 28 ballgacha bo‘lgan doirada baholanadi;		
4.	A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o‘rinli foydalaniłgan, tahlil va mustaqil umumlashmalar chiqarishga intilish, mavzuni ochishda, mantiqiy fikrlashda harakat ko‘zga tashlansa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash ko‘rinib tursa, ayrim mualliflarning mazkur mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari mantiqli dalillar bilan rad etilsa yoki tanqid qilingan bo‘lsa - 12 – 16 ballgacha; dalillar biroz yetishmasa, uslubda oqsashlar uchrasa, tahlil u qadar teran bo‘lmasa - 10 – 14 ballgacha doirada baholanadi. B) ishda uslubiy va imloviy jihatdan uncha muhim bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ijodiy insho – 28 - 34 ballgacha; orfografik, punktuasion va uslubiy xatolarning umumiyl soni - 4-5 ta bo‘lganda - 30 – 34 ballgacha bo‘lgan doirada baholanadi;	12-16 28-34	Jami: 50 ball
	A) mavzu teran va har tomonlama ochib berilgan, raqam va dalillardan mahorat bilan foydalaniłgan, mantiqiy, tahliliy xulosalar, umumlashmalar chiqarish qobiliyati yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lsa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin, aniq ifodalash ko‘rinib tursa, mazmunga mos shakl tanlangan, ijodiy ishda o‘rinli tarzda tanqidiy mulohazalar bildirilgan bo‘lsa, mazmunni ochishda abituriyentning mustaqil fikrlash qobiliyati aniq ko‘rinib tursa - 16 – 19 ballgacha; ishda umumiyl xulosalar yetishmasa, fikrlarni umumlashtirishda mantiq oqsasa, fikrlar sintezi kamroq bo‘lsa - 14 – 18 ballgacha baholanadi. B) Ishda uslubiy va imloviy xatolar uchramasa, ijodiy insho - 40 - 44 ballgacha bo‘lgan doirada baholanadi; orfografik, punktuasion va uslubiy xatolarning umumiyl soni 3-4 ta bo‘lsa – 39 - 42 ballgacha baholanadi.	16-19 40-44	Jami: 63 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to‘plangan ballar alohida ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas’ul kotib yoki uning muoviniga takdim etiladi.

Amaliy ish va ijodiy imtihon natijalarini apellyasiya qilish tartibi

Amaliy ish va ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo‘yicha apellyasiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o‘zining ijodiy ishi va ballari xususida e’tiroz bo‘lsa, qabul

qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Apellyasiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Amaliy ish va ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissyaning roziligi bilan va faqat apellyasiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Amaliy ish va ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyasiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus.
2. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi. // www.lex.uz 07.02.2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T., “O‘zbekiston”, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligning garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”. 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so‘zi” gazetasи 2019-yil 27-iyun.
7. Raytman M.A. Adobe Photoshop. Ofisialnyy uchebnyy kurs. Moskva. 2017.
8. Yevgeniya Tuchkevich: Adobe Photoshop CC. Moskva. 2019.
9. Komolova, Yakovleva: CorelDraw X8. Samouchitel. Moskva. 2017.
10. Do‘stmuhammad X. Jurnalist bo‘lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2001.
11. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
12. Jabborov Sh. O‘zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.